

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60811000-Meva-sabzavotchilik va uzumchilik
bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi *60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik* ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Qishloq xo’jaligi ta’lim sohasiga oid yo’nalishi bo’lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshka mahsulotlarini mavsumda ishlab chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish; mahsulotlar hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari majmuasini o’z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasa, agrofirma, fermer xo’jaligi va klasterlarda agronom;

qishloq xo’jaligida yer, suv, energiya va moddiy texnika va mehnat resurslari, meva-sabzavot va tok o’simliklari, qo’shimcha kimyoviy va biologik vositalar;

texnik asbob uskunalari;

qishloq xo’jalik tizimidagi ishlab chiqarish;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik xo’jaliklarida qo’llaniladigan yetishtirish texnologiyasi va ishlab chiqarish;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik xo‘jaliklarining ixtisoslashgan boshqaruv tizimlari;

kasallik va zararkunandalar bilan zararlangan issiqxona xo‘jaligi ekinlari.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo’nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy – tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *axborot–tahliliy;*
- *loyiha–texnologik faoliyat va texnologik–ishlab chiqarish.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60811000 – Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorgarlik, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;

respublika va xorijda chop etilgan meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshkachilikka oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy – tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish.

Tashkiliy–boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

meva-sabzavotchilik va uzumchilik xo‘jaliklarini tashkil etish va faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali boshqarish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik xo‘jaligini tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish sohasida meyoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

meva-sabzavotchilik va uzum mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha servis xizmat ko'rsatish;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik xo'jaliklari maydonini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot tahliliy faoliyatida:

texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;

yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalarini ta'minlash.

Loyiha–texnologik va texnologik–ishlab chiqarish faoliyatida:

meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasi bo'yicha loyihalar tuzish mehnat jamoasini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarni loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;

faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;

mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega

bo'lishi;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida mehnatni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring nazorat qilishi;

sohaga oid muammolarni yechimini topishi;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishi;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarishi;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholashi;

meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi;

meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda ekinlarni yetishtirish texnologik jarayonlarni boshqarishi;

zamonaviy bozor talablarini, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan xo'jalik strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

innovatsion loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirishi;

tuproq unumdorligini oshirishga va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini ko'paytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishni bilishi;

zararkunandalar, o'simliklar kasalliklari va begona o'tlar bilan kurashish bo'yicha texnologiyalarni ishlab chiqishni biladi va joriy eta olishi;

meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida ilmiy-tadqiqotlar o'tkaza olishi; dala, bog'dorlikchilik, poliz ekinlariga ishlov berishning ilg'or uslublarini biladi va joriy eta olishi;

ekiladigan ekinlarning ishlab chiqarish rejalari, turlari va sonini ishlab chiqarishni biladi;

o'simliklar urug'lari, ko'chatlar va o'g'itlarni sotib olish bo'yicha muzokaralar olib boradi va shartnoma loyihalarini tayyorlay olishi;

yuqori sifatli navli urug'larni va ekish materiallarini yetishtirish, urug'jamg'armalarini yaratish bo'yicha ishlarni tashkillashtira olishi;

ekinlarni ekishga tuproqni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkillashtira olishi;

o'g'itlarni tuproqqa solishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqarishni biladi;

urug'larni va ekish materiallarini tayyorlash ustidan nazoratni amalga oshira olishi;

dala ekinlariga ishlov berish bo'yicha ishlarni tashkillashtira olishi;

rejalarni (ekinlarni parvarishlash bo'yicha kalendar jadvallarni) ishlab chiqarishni biladi;

hosilni yig'ishtirish, yig'ishtirib olingan hosilni saqlash joylariga tashish va saqlash bo'yicha ishlarning bajarilishini nazorat qila olishi;

ilmiy hujjatlar va hisobotlarni tayyorlay olishi;

meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini ishlab chiqarishni samarali va resurs tejamkor faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O’quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5160	172	
1.01	O’EYTB1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O’T O’SQB1204	O’zbek (rus) tili. O’zbek tilini sohada qo’llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	ENMSB1104	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1204	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	120	4	2
1.09	BO’FZB1108	Botanika va o’simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXMB1106	Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1
1.11	QXAKTB1104	Qishloq xo’jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.12	SEBB1204	Sabzavot ekinlari biologiyasi	120	4	2
1.13	MEBB1204	Meva ekinlari biologiyasi	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.16	O’HQB1308	O’simliklarni himoya qilish 1,2	240	8	3,4
1.17	MSESUNB1308	Meva-sabzavot ekinlari seleksiyasi, urug’chiligi va navshunosligi	240	8	3,4
1.18	O’S HB1306	O’simlikshunoslik	180	6	3
1.19	QXMSQITB1406	Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	180	6	4
1.20	UZUMB1510	Uzumchilik 1,2	300	10	5,6
1.21	SABB1512	Sabzavotchilik 1,2	360	12	5,6
1.22	HEMSB1508	Himoyalangan yer meva-sabzavotchiligi	240	8	5,6
1.23	PKB1510	Polizchilik va kartoshkachilik	300	10	5,6
1.24	MEVAB1610	Mevachilik 1,2	300	10	6,7
1.25	QXMSSB1704	Qishloq xo’jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	120	4	7
1.26	KTSEYET1706	Kam tarqalgan sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyasi	180	6	7

1.27	IMB1706	Intensiv mekachilik	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	720	24	3,4,5,7
2.00		Tanlov fanlar	720	24	
Kvalifikatsiya		Mevachi, sabzavotchi, uzumchi, agronom			
		Jami	5880	196	
		Malakaviy amaliyotlar	1320	44	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1320	44	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 634+635+634.8

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:
Toshkent davlat agrar universiteti**

Birinchi prorektori  **S.Ya. Islamov**

2024 yil



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **M. Boltabayev**

2024 yil "20" 06

M.O'.




**O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni
rivojlantirish boshqarmasi**

Boshlig'i  **T. Ataqulov**

2024 yil "12" 06

M.O'.



**Andijon qishloq xo'jaligi va
agroteknologiyalar instituti**

Rektor  **T. Sultonov**

2024 yil "8" 06

M.O'.




**Qishloq xo'jaligida xizmatlar
ko'rsatish agentligi**


Direktor  **N. Abdullayev**

2024 yil "11" 06

M.O'.



**Sabzavot, poliz ekinlari va
kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktori  **R. Nizomov**

2024 yil "11" 06

M.O'.



**Akademik M. Mirzayev nomidagi
Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik
ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktori  **A. Esanqulov**

2024 yil "11" 06

M.O'.

